



**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI SOHASI BUGUN YURTIMIZDA VA XUSUSAN,  
XORIJ MODELI, FINLANDIYA**

**Ne'matilloyeva Mehrangiz**

*BuxDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan bo'lib, ularni tashkil qilishdagi yo'xaritasi va xorij modellaridan misollar keltirib, samarali usullarni o'zimizda joriy etish tog'risida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tarbiyalanuvchi, interaktiv, fin modeli, ta'lim va tarbiya, salohiyat.*

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar keng miqyosni qamrab olgan bo'lib, uning ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy sohalarni aholi orasida yanada kengroq tashkil qilish va ulardan ko'zlangan maqsad jamiyatni taraqqiy ettirish dastlabki, vazifa sifatida belgilab o'tilgan. "Harakatlar strategiyasi", keyinroq "Besh tashabbus" loyihasi zamirida ham jamiyat rivoji kutiladi. Hammamizga ma'lumki, jamiyatning dastlabki bo'g'ini oila bo'lsa, keyinchalik uning ijtimoiylashuvida Maktabgacha ta'lim tizimi( keying o'rnlarda Bog'cha yoki MTT)larning o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz aytganlaridek biz yangi tizim va islohotlarni eng quyi bo'g'indan boshlash va poydevorni mustahkamroq qilib quyishimiz kerakki, u yillar osha o'z salobatini yo'qotmasdan bizga tayanch vazifasini o'tab bersin. Shu sababli bugubgi kundagi bog'chalar tizimini yaxshilash va u yerda ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarni salohiyatini oshirish maqsadida bir qator siyosiy hujjatlar imzolanib, ijrosi yuzasidan nazorat amalga oshirilmoqda. Chunki ta'limning ilk bosqichi bu MTTlari albatta so'zlarning isoboti o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori"

"O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori imzolandi.

Qarorda bu tizimni yanada rivojlantirish davlat va xususiy MTTMlarini kengaytirish, shuningdek davlat bilan sherikchilik asosida bu faoliyatni yo'lga qo'yish kabi bir qator masalalarni qamrab olgan.Bugungi kunda O'zbekistonda 7104ta maktabgacha ta'ilm tashkilotlari faoliyat yuritadi. Ulardan 5604tasi ya'ni 79% -davlat bog'chalari bo'lsa, 63tasi idoraviy va 1437tasi ya'ni 21% nodavlat tashkilotidir.

2017-2018-yillarda 752ta MTTlari filiallari negizida yurdik shaxs maqomiga to'laqonli ega MTTlari tashkil qilindi. Bu esa oldingi yillarga qaraganda ancha yuqori. Tizimni rivojlantirish orqali ta'lim sohasida tub burilish yasash maqsad qilib olingan. Buning uchun yurtimizda MTTlarida o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan pedagog-kadrlar sifatini oshirish, ularning malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, xorijiy ilg'or modellardan foydalanish, bolalarning aqliy salohiyatini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish, o'quv jarayonlarini qiziqarli tashkil qilish va ularning erkin faoliyat olib borishlariga keng imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan dolzarb masalalar kun tartibiga qo'yilgan.



Va Albatta, bu ishlarni amalga oshirish uchun “Yo’l xaritasi” allaqachon shakllantirilgan. Bizning yurtimizda ham , keng xorijda bo’lgani kabi maktabgacha yoshdagi qamrab olingan bolalarning to’g’ri ta’lim olishi , bu faoliyatni yo’lga qo’yish katta qismi davlat mablag’lari hisobidan va bir qismi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda tuman markazlarida va chekka hududlarda bog’cha to’lovleri 50000 so’m( ellik ming so’m)ni tashkil qiladi. Xorijda bugungi kunda xususiy bog’chalar soni ko’payishi va ularda tarbiyalanuvchilarning boshqalarga qaraganda ustunroq ekanligi o’z isbotini topayotgan bir nuqtada Finlandiya davlatida ota-onalar faqat muassasada tarbiyalanuvchi farzandlari uchun sarflanadigan mablag’larning bor-yog’I 14% ni qoplashadi , qolgan 86% davlat mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi. Shuni ham ta’kidlab o’tish joizki, bu mamlakatda xususiy ta’lim degan qarashlar mavjud emas va bu ta’lim tizimi 2000yillardan beri o’tkazilayotgan fan olimpiadalarida yuqori o’rnlarni qayd etishlari insonlarni hayratda qoldiriyapti. Sababi oddiy fin MTTlarida tarbiyalanuvchilar va yuqorida aytganimizdek qimmatroq to’lab xususiy MTTlariga qatnovchilarning salohiyat darajasi va ko’rsatgichlari deyarli teng. Shuningdek bu yerda tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga ham imkoniyatlar yaratib berilgan bo’lib agar siz talaba bo’lsangiz va farzandingiz bog’chaga borsa, undan yuqorida biz ta’kidlab o’tgan 14% ham olinmaydi. Finlandiyada bir tartib bor “Education is free” ya’ni” Ta’lim- bepuldir” shunda ham bu 14% bu eng yuqori ko’rsatgichi bo’lib farzandingizning yosh doirasidan va salohiyatidan kelib chiqib bu badal ham o’zgarib turadi. Bizning muassasalarimizda bolgani kabi ular tarbiyalanuvchilarga hech qanday uy vazifalari yokda topshiriqlar berib bormaydilar, ularing qarashicha faqatgina ta’lim muassasalaridagina ta’lim olish kerak va boshqa vaqtlar bolalar o’z vaqtlarini o’zlari istagandek ota-onalari yoki o’rtoqlari bilan o’tkazishlari kerak. Shunungdek bu yerda bolalar 7 yoshga to’lgandan keyingina maktabga beriladi ,haftada darslar davomiyligi 20 soatdan oshmasligi va har bir akademik soat darsdan keyin 15 daqiqalik tanaffuslar berish orqali tashkil qilinib , uy uchun hech qanday vazifalar berilmaydi. Bu tizim o’zini to’laqonli oqlaganini xalqaro miqyosda tashkil qilingan turli olimpiadalarda erishilayotgan natijalardan ham bilsa bo’ladi.( PISA) Sitistikaga qaraydigan bo’lsak bir necha yillardan beri Finlandiya ta’lim sifati bo’yicha yuqori o’rnlarni egallab kelmoqda.

Biz bugun bu soha rivoji uchun yuqorida qabul qilingan konsepsiyanı to’liq amalda qo’llay olsak, ishontirib ayta olamizki 2030-yilga borganda bizning o’quvchilar ham o’z natijalari bilan yana ham jahon hamjamiyatini hayratda qoldiradi.